

3-dars

9-sinfona tili

Mavzu: Kesim tobe gapli qo'shma gaplar.

Maqsad: - o'quvchilarning mavzu haqidagi bilim va malakalarini shakllantirish.

- ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash
- fanga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish.

Dars tipi: yangi bilimlar berish, bilimlarni sinash.

Dars turi: izlab o'rganish, mustaqil ijodiy faoliyat, siriov.

Darsda qo'lanadigan interfaol «sullar: qulay testlardan foydalanish,

o'z-o'zini nazorat qilish.

I. Darsni tashkil qilish:

O'qituvchi "Qulay testlardan foydalanish" interfaol usulidan foydalanib, o'tilgan mavzuni so'rashi mumkin. O'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida 30 ta test tayyorlaydi, har bir testda 5 savol bo'ladi. 10 test bir xil va bu 10 testga 1 raqami qo'yiladi. 2 o'nta test bir xil bo'lib, 2 raqami qo'yiladi. 3 o'nta test bir xil bo'lib, 3 raqami hammasiga qo'yiladi. Test sinovi bilan birgalikda raqamlar qo'yilgan varaqa tarqatiladi, o'quvchilar ismi shariflarini yozib, belgilab o'qituvchiga beradilar. O'qituvchida ham 3 ta test javobi raqamlar asosida bor bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilardan javob varaqasini olib o'z qo'lidagi test javobini ustiga qo'yib, nechta test javobi to'g'ri, nechta test javobi xato ekanligini tezda aniqlashi mumkin. (O'tilgan mavzuni o'quvchilar qanday o'zlashtirgani aniqlanadi.)

II. Asosiy qism:

Yangi mavzuning bayoni: "O'z-o'zini nazorat qilish" interfaol usuli orqali bajariladi.

1- topshiriq:

83-mashqni 3- qator o'quvchilari 3-topshiriq asosida bajaradilar.

1-qator o'quvchilari hokim va tobe gaplarhi aniqlashlari, qaysi gapning kesimi nimaga ishora qilayotganligini bilishga harakat qilishlari shart.

Masalan : Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini biladi va uni vijdonan bajaradi.

Ona tilini maktabda o'qitishdan maqsad, o'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganishsin, ona tilining cheksiz imkoniyatlaridan unumli foydalana olishsin.

2- qator o'quvchilari 2- topshiriq asosida mashqni bajarishadi.

Mashq sharti:

Kesim tobe gapli qo'shma gapni kengaygan sodda gapga aylantiring.
Masalan: Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini vijdonan bilishidadir.

O'quvchilar mustaqil fikrlashi, ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalanishlari uchun maktablarda ona tili fahi o'qitilmoqda.

3-qator shu mashqni 3-topshiriq asosida bajarishadi. Hokim va tobe gaplarning bog'lanishi haqida ma'lumot berishlari kerak. Masalan: -Hokim va tobe gap

- ki, -kim, ergashtiruvchi bog'lovchi yordamida bog'lanayotganligini aytishadi.

2-topshiriq:

-

84-mashqni sinf o'quvchilari-birgalikda bajaradi.

Yozing:

Kengaygan kesimli sodda gaplarni kesim ergash gapli qo'shma gapga aylantiring. Euqarolik burchimiz shundaki, O'zbekiston qonunlariga to 'la-to 'kis amal qilamiz.

Otaning farzand oldidagi qarzi shundaki, unga yaxshi nom qo'yish, hunar o'rgatish, mustaqil hayotga tayyorlashdir va hokazo.

Mashqning shartiga amal qilib to'g'ri bajargan o'quvchilar baholanadi.

3-topshiriq:

"Matbuot materiallaridan foydalanish" interfaol usullaridan foydalanib mavzuni mazmunli o'zlashtirish mumkin.

O'qituvchi har bir partaga gazeta va jurbal boshqa materiallar beradi. O'quvchilar shu man'balardan 3 tadan kesim tobe gapli qo'shma gaplarni topib daftarlariga ko'chirishlari mumkin.

(Qaysi o'quvchi topshiriqni to'g'ri, bexato bajargan bo'lsa, o'qituvchi tomobidan baholanadi)

III. Mustahkamlash.

Bir partada o'tirgan ikki o'quvchining biri ikkinchisiga shu mavzuga doir savol beradi, partadoshi o'rtog'ining savollariga javob berishi kerak. O'qituvchi nazoratida bu topshiriq bajariladi.

Masalan: Birinchi partadagi 1-o'quvchi o'rtog'iga savol beradi.

-A. Navoiy haqida kesim tobe gapli qo'shma gaplar tuzing.

-Javob.

- A. Navoiy me'rosining abadiyligi shundaki, shoir yaratgan asarlar asrlar osha jamiyat bilan hamnafasdir.

Xuddi shundayhar birpartadagio'quvchi o'z. o'rtog'i bilan savol-javob qilishi mumkin. (Oqituvchi ularni baholab boradi)

IV. Uyga vazifa

O'quvchilar bilim va malakasiga mos ravishda topshiriq beriladi.